

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA LINGVISTIK KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH

O'ktamova Kamola Farxod qizi

Nizomiy nomidagi O'zMPU, Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi

Shodmonqulova Dilorom

Nizomiy nomidagi O'zMPU, Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish haqida bayon qilingan. Lingvistik kompetensiyalar orqali bolalarning nutqi rivojlantirilishi ta'kidlanadi. Ona tilida lingvistik kompetensiyalarning bir necha turlari mavjud bo'lib, ularni shakllantirishning asosiy maqsadlari ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, maqolada o'quvchisida lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish uchun boshlang'ich sinf o'qituvchilari qo'llashi mumkin bo'lgan samarali usullar va metodik tavsiyalar, mashq va topshiriqlarga misollar keltirilgan.

Аннотация: В данной статье рассматривается формирование языковых компетенций у учащихся начальной школы. Особое внимание уделяется развитию речи детей через языковые компетенции. Выделяется несколько видов языковых компетенций в родном языке, а также обозначены основные цели их формирования. Также в статье приводятся эффективные методы и методические рекомендации, примеры упражнений и заданий, которые могут использовать учителя начальной школы для формирования языковых компетенций у учащихся.

Abstract: This article examines the development of language competencies in primary school students. Particular attention is paid to the development of children's speech through language competencies. Several types of language competencies in the native language are identified, and the main goals for their development are outlined. The article also presents effective methods and guidelines, along with examples of exercises and assignments that primary school teachers can use to develop language competencies in students.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, kompetensiya, lingvistika, lingvistik kompetensiyalar, darslik, fonetik-fonetologik kompetensiya, leksik-semantik kompetensiya, morfologik kompetensiya, sintaktik kompetensiya.

Ключевые слова: начальный класс, компетенция, лингвистика, лингвистические компетенции, учебник, фонетико-фонологическая компетенция, лексико-семантическая компетенция, морфологическая компетенция, синтаксическая компетенция.

Keywords: primary school, competence, linguistics, linguistic competencies, textbook, phonetic-phonological competence, lexical-semantic competence, morphological competence, syntactic competence.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish o'quvchilarning nutqini tog'ri, ravon va tushunarli bo'lishi, so'z qo'llashdagi xatoliklarga yo'l qo'ymasliklari, umumiy o'quv faoliyati va boshqalar bilan muloqotga kirishganidagi kommunikativ ko'nikmalari uchun asosiy fundamental ahamiyatga ega hisoblanadi. Ushbu jarayon o'quvchilar tilning barcha jabhalarini o'zlashtirishlarini va ularni amaliyotda to'g'ri va o'rinli qo'llay olishlarini qamrab oladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishning asosiy maqsadi ularning nutqidagi kamchiliklarni bartaraf erish, nutqini mazmunli, aniq va til me'yorlariga amal qilgan holda muloqotga kirishishlarini o'rgatish hamda til orqali bilish qobiliyatlarini rivojlantirishdan iborat.

“Kompetensiya – bilim, malaka va shaxsiy fazilatlariga asoslangan holda muayyan yo'nalishda muvaffaqiyatli faoliyat olib borish ko'nikmasi”,-deydi O.I.Okulovskiy.[1] Ojegov va Shedovalarning “Rus tili izohli lug'ati” kitobida kompetensiyaga quyidagicha ta'rif berishgan: “Kompetensiya – bu inson tomonidan yaxshi o'zlashtirilgan bilimlari ko'lam. Inson hayoti davomida olgan bilim, malaka va ko'nikmalariga asoslanadi. Bular, o'z navbatida, insonning muayyan faoliyat olib borishiga, qo'yilgan muammolarni hal etishga layoqatini ta'minlaydi”.[2] Shunday ekan, kompetensiya bu olingan bilim, ko'nikma va malakani hayotda notanish vaziyatlarda qo'llay olish.

Lingvistika (lotincha *lingua* — til) — bu til haqidagi fan, tilshunoslik degani, ya'ni tilning tuzilishi, kelib chiqishi, rivojlanishi va undan foydalanish qonuniyatlarini o'rganadigan fan; til haqidagi fan. U tilning fonetikasi (tovushlar), morfologiyasi (so'z yasaliishi), sintaksisi (gap tuzilishi), semantika (ma'no), stilistika kabi barcha qismlarini tadqiq qiladi.[3]

Lingvistik kompetensiya – maktab o'quvchisining lingvistik kompetensiyasi deganda til sistemasi haqidagi bilimga, lingvistik tafakkurga, yangi til vaziyatlarda bilim va ko'nikmalarini mustaqil qo'llash tajribasiga ega bo'lgan o'quvchining shaxsiy xislatlari tushuniladi. Boshqacha qilib aytganda, lingvistik kompetensiya ijtimoiy hodisa va belgilar sistemasi sifatida til haqida, tilning qurilishi va funksiyalashishi haqidagi o'quvchilarning bilim, malaka va ko'nikmasi hamda bulardan turli vaziyatlarda mahorati anglashiladi. Lingvistik kompetensiya o'quvchining ona tili fanining fonetika, leksika, frazeologiya, morfologiya, sintaksis, orfografiya, punktuatsiya singari bo'limlari haqidagi bilimlari, bu bilimlardan turli xil vaziyatlarda foydalanish malaka va ko'nikmasidir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishning kompetensiya turiga qarab o'ziga xos uslublari va topshiriqlari mavjud. O'qituvchidan har bir bosqichda to'g'ri metodika va mashqlar tanlash, ularni o'quvchilarga tushunarli va aniq qilib o'rgatishi, ushbu jarayonda kompetensiyalarning asosiy mazmunini ochib berish, bolalarni mustaqil fikrlashga undash talab qilinadi. Shunday ekan, boshlang'ich sinf darslarida lingvistik kompetensiyalarni o'rgatish bolaning tafakkurini va nutqini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinfda shakllantiriladigan lingvistik kompetensiyalar bir necha asosiy yo'nalishlarga bo'linadi:

1. Fonetik-fonetologik kompetensiya. Ushbu kompetensiyaning asosiy maqsadi nutq tovushlarini to'g'ri talaffuz qilish va ularni farqlash qobiliyatini rivojlantirishdan iborat. Uni o'quvchilar ongida shakllantirish usullari: tovush-harflarni tahlil qilish, bo'g'inlarga ajratish, urg'uni to'g'ri qo'yish mashqlari. Bu kompetensiya natijasi o'quvchining o'qish va yozish savodxonligi sifatini oshirishida ko'rinadi.

2. Leksik-semantik kompetensiya. Bunda asosiy maqsad so'zlarning ma'nosini tushunish va lug'at boyligini oshirishdan iborat bo'ladi. Boshlang'ich sinflarda shakllantirish usullari:

- Yangi so'zlarni kontekstda o'rganish (o'qish va ona tili darslarida notanish so'zlarni gap ichidagi ma'nosini o'rgatish);
- Lug'at daftarlari bilan ishlash va so'zlarning ma'nosini tushuntirish;
- Sinonim, antonim va omonimlarni farqlash bo'yicha mashqlar bajarish.

Ushbu kompetensiyaning egallash orqali o'quvchilar nutqning ifodalilik darajasini oshirishga erishadilar.

3. Morfologik kompetensiya. Uni o'rgatishdan ko'zlangan maqsad: so'zlarning tuzilishini (asos, qo'shimcha) va so'z turkumlarini farqlashni o'rgatish. Kompetensiyaning shakllantirish usullarini quyida ko'rib o'tamiz:

- So'z turkumlari (ot, fe'l, sifat, son, olmosh) bilan tanishtirish, ular ishtirokida mashqlar bajarish;
- Asosga qo'shiladigan qo'shimchalarning so'z ma'nosini va shaklini o'zgartirishini ko'rsatish (masalan, so'z ma'nosini o'zgartirishi- sifat so'z turkumidan fe'l so'z turkumidagi so'zni hosil qilish (oq+ la= oqla; so'z shaklini o'zgartirishi birlikdagi otni ko'plikka o'tkazish (to'p+ lar (ko'plik qo'shimchasi)= to'plar), bunda so'z ma'nosi o'z holida qoldi, faqat bir dona to'pdan bir nechta to'pga o'zgardi).

O'rgatilgan kompetensiyadan grammatik kategoriyalarni tushunish va ularni nutqda to'g'ri qo'llash natijasi olinadi .

4. Sintaktik kompetensiya: o'rgatishdan maqsad so'zlarni gapda to'g'ri bog'lash va turli xil gap turlarini tuzish malakasini rivojlantirish. Mazkur kompetensiyaning shakllantirish usullari:

- Gap bo'laklarini (ega, kesim, ikkinchi darajali bo'laklar) aniqlash;
- Oddiy va sodda yig'iq gaplarni tuzish mashqlarini bajarish;
- Gaplardagi so'z tartibining ma'noga ta'sirini ko'rsatish.

Olinadigan natija fikrlarni izchil va grammatik jihatdan to'g'ri ifodalash bo'ladi.

Lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishda ona tili darsliklari bilan ishlash:

1. Fonetik-fonetologik kompetensiyaning 2-sinf ona tili darsligining 1-qismida keltirilgan 8-mashq orqali rivojlantirish mumkin. Ushbu mashqda tovushlar charxpalagi berilgan. Mashqqa ko'ra o'quvchilar osh so'zining boshiga qo'shish mumkin bo'lgan harflarni qo'yishadi, natijada turli ma'nodagi so'zlar hosil bo'ladi. T+ osh= tosh, q+ osh=qosh, b+osh=bosh, y+ osh= yosh, m+ osh= mosh. O'quvchilarda harflar o'zgarishi bilan so'zning ma'nosi ham o'zgarishi haqida tushuncha hosil bo'ladi. 2-sinf 1-qism ona tili

kitobidagi 3-mashq o'quvchilarda bo'g'inlardan ma'noli so'z tuzish ko'nikmasini va so'z boyligini oshirishga xizmat qiladi. Mashqqa ko'ra berilgan bo'g'inlardan iloji boricha ko'proq so'z tuzishlari talab qilinadi. Bu mashqni guruh bo'lib bajarilsa o'quvchilarda so'z boyligi yakka holda bajarishga nisbatan yuqoriroq bo'lishini kuzatamiz.

2. Leksik-semantik kompetensiyalarni rivojlantirishda bizga ona tili 2-sinf 2-qism darsligidagi 4-mashq kabi mashq turlari yordam beradi. Bu turdagi mashqlarda kichik she'r, matn yoki hikoya berilgan bo'ladi va o'quvchilar matn ichidagi notanish so'zlar bilan kontekstda tanishish imkoniga ega bo'ladilar. So'zlarni konteksta va lug'atlardan foydalanib tushuntirish ularning nutq boyligiga sezilarli yordam beradi va so'z ma'nosini aniq, tushunarli bo'lishini ta'minlaydi.

3. Morfologik kompetensiyalarni o'stirishda 4-sinf 3-qism ona tili kitobidagi kabi topshiriqlar samarali foyda beradi. Bu mashqda o'quvchilar so'z turkumi, asos va qo'shimcha, qo'shimcha qo'shganda asosda yuz berishi mumkin bo'lgan morfologik o'zgarishlarni yaqqol ochib beradi. Mashqqa ko'ra o'quvchilar kishilik olmoshlariga kelishik qo'shimchalarini qo'shishlari va sodir bo'lgan o'zgarishlarni aniqlashlari lozim bo'ladi. Bu turdagi mashq o'quvchilardan ziyraklik va til qoidalarini yaxshi bilishlarini talab qiladi va morfologik kompetensiyalarini oshiradi.

4. Sintaktik kompetensiyani shakllantirishda o'quvchilar uchun 3-sinf ona tilida berilgan mashq turlari yordam beradi. Misol uchun, ona tili 3-sinf 2-qismda berilgan 13-mashqni oladigan bo'lsak, bu mashqda o'quvchilar ham gap tuzishlari kerak bo'ladi, ham gapdagi egani topishlari zarur. Bu turdagi mashqlar o'quvchilar fikrlashini tezlashtiradi, ularni bir vaqtning o'zida turli topshiriqlarni bajarishga o'rgatadi va eng muhimi gap bo'laklarini ajrata olish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishning metodik yondashuvlari. Lingvistik kompetensiyalarni samarali shakllantirish uchun amaliyotga yo'naltirilgan va interfaol metodlardan foydalanish muhimdir:

- Nutqiy vaziyatlarni yaratish: o'quvchilarni doimiy ravishda real muloqotga chorlash. Masalan, rolli o'yinlar, hikoyalar tuzish.
- Vizualizatsiya: grammatik qoidalarini (so'z turkumlari jadvali) yoki sxemalar orqali tushuntirish. Bu mavhum tushunchalarni aniqlashtirishga yordam beradi.
- Integrativ yondashuv: ona tili darslarini adabiyot, rasm yoki tabiatshunoslik darslari bilan bog'lash. Masalan, matnni o'qishda yangi so'zlarni leksik jihatdan, gaplarni esa sintaktik jihatdan tahlil qilish.
- Tadqiqot mashqlari: o'quvchilarga til hodisalarini (masalan, nega bu so'z fe'l, u qanday ma'no beradi) mustaqil topish va xulosa chiqarish vazifalarini berish.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mazkur kompetensiyalar majmuyi o'quvchining nafaqat tili, balki aqliy faoliyatini ham rivojlantirib, keyingi bosqichlarda o'qishga tayyorlaydi. Lingvistik kompetensiya — bu shunchaki til qoidalarini yodlash emas, balki olingan bilimlarni kutilmagan nutqiy vaziyatlarda to'g'ri, ravon va tushunarli qo'llay olish mahoratidir. Bu o'quvchining shaxsiy sifatiga aylanib, uning ijtimoiy muloqotdagi

muvaaffaqiyatini ta'minlaydi. Boshlang'ich sinflarda lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish bolaning kelajakdagi muloqot madaniyati va intellektual salohiyati uchun poydevor hisoblanadi. Bu jarayon bolani nafaqat to'g'ri gapirishga, balki mantiqiy va mustaqil fikrlashga o'rgatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O.I.Okulovskiy-“Kompetensiya va talimdagi kompetensiyaviy yondashuv” // Yosh olim.-M.2012. . -№12. – B. 499-500.
2. S.I.Ojegov, I.Yu.Shedova- “Rus tilining izohli lug'ati” -M.: Az, 1992.
3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000-y.
4. S.D.Kurunov-Ona tili 2-sinf 1-qism-darslik - Toshkent, 2023-y.
5. S.D.Kurunov-Ona tili 2-sinf 2-qism-darslik - Toshkent, 2023-y.
6. D.D.Baynazarova, M.E.Toirova-Ona tili 4-sinf 4-qism-darslik - Toshkent, 2023-y.
7. D.J.Baynazarova -Ona tili 3-sinf 2-qism-darslik - Toshkent, 2023-y.